

TURKIY SARKARDALAR TURKUMIDAN TEMUR MALIK

Mamadaliyev Muhammad ali Xamidullo o'g'li

University of Business and Science nodavlat oliy ta'lim muassasasi

Pedagogika - psixologiya yo'nalishi 22-13 guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17053666>

Annotatsiya. ushbu maqola Turkiy qavmga mansub bo'lgan o'z davrining yetuk namoyondasi Temur Malik haqida va Turkiylar haqida bilib olasiz. Davrlar oralig'ida turkiy xalqlar orasidan juda ham ko'plar olimlar yengilmas sarkardalar yetishib chiqqan va bu mavzuda Turkiy sarkardalar turkumi orqali malumotlar beramiz.

Kalit so'zlar: Turkiylar, sarkarda, Davlat, Qavm, qabilalar, sulolalar, mintaqa, urush.

Аннотация: в этой статье вы узнаете о Тимуре Малике, зрелом представителе своего времени, принадлежавшем к тюркскому племени, и о тюрках. Среди дарвазов из тюркских народов гораздо больше ученых, чем непобедимых полководцев, и мы даем информацию по этой теме через серию тюркских полководцев.

Ключевые слова: тюрки, полководец, государство, племя, племена, династии, регион, война.

Jahondagi turkiy tillardada so'zlashuvchi xalqlarga nisbatan ishlatiladigan nom. Turk so'zi baquvvat, barkamol, odillik kabi ma'nolarni anglatadi, degan fikrlar mavjud. Qadimgi turklar genetik va fenotipik jihatdan Sharqiy osiyoliklar va sibirliklar bilan chambarchas bog'liq edi. Turkiy xalqlar mo'g'ullar va koreyslar bilan alohida yaqin munosabatda bo'lishi mumkin.

Genetik, arxeologik va lingvistik dalillar ilk turkiy xalqlarni shimoli-Sharqiy Osiyo Tarik-agriculturalists bilan bog'laydi, keyinchalik ko'chmanchi turmush tarzini qabul qilgan va Sharqiy Mo'g'ulistondan g'arbga tomon kengaygan.

Bir necha ming yilliklar davomida turkiy qabilalar ko'p marta birlashgan va parchalanganligi tufayli ularning qabilaviy tarkibi o'zgarib turgan.

Mil. av 2-asrdan — mil. 3-asrgacha bo'lgan davrda turklar Hun xoqonligi tarkibida bo'lgani sababli Xitoy manbalarida shyunnu, hunnu deb ham atalgan. Mazkur xoqonlik yemirilgandan keyingi 300 yilga yaqin davr davomida xitoylar turklarni tiyekle (zamonaviy tilda tele) deb atashgan.

6-asrda turklarda bo'lgan Ashina avlodi kuchayib, Turk xoqonligi barpo etgan. Xitoy manbalariga ko'ra, 9-asrda tilga olinadigan turk qabilalari 58 ta nom bilan ajratilgan. Shulardan 22 tasi uyg'ur (ittifoqchilar) deb nomlangan. Uyg'ur xoqonligi tugatilganidan so'ng bularning katta bir qismi Turkiston hududida joylashgan (qarang Turk). Turkiya olimlari asarlarida turk qabilasi ko'kturk deb xam ataladi. Tadqiqotlarga ko'ra, ko'kturk so'zi tangriga, ya'ni osmonga ishongan turklar, balandlik turklari, ko'k bo'ri totemi bo'lgan turklar kabi ma'nolarni anglatgan. Markaziy Osiyoda turk toponim, etnonim, gidronim sifatida ko'plab uchraydi. Ashina (Turk xoqonligi, G'arbiy turk xoqonligi, Sharqiy Turk xoqonligi, Xazarlar, Nushibi) Ashide (Empress clan of Ikkinchi Turkiy Xoqonlik) Yaglakar (Uyg'ur xoqonligi, Ganzhou Uyghur Kingdom) Adiz (Uyg'ur hoqonligi) Dulo (Volga-Kama Bulg'oriyasi) Bulanid (Xazar xoqonligi) Osman (Usmonlilar imperiyasi) Bahri (Mamluklar davlati) Sarkar (Shirvon Xonligi) Javanshir (Qorabog' xonligi Terteridlar (Ikkinchi Bolgariya Imperiyasi) Saljuqiylar, Xorazmshohlar, G'aznaviylar, Usmonlilar va turli davlatlar kiradi.

Temur Malik

(XII asr oxiri - XIII asrning 1-yarmi)-Xorazmshoh Muhammad hukmronligi davrida

Xo'jand hokimi, Jaloliddin Manguberdining yaqin safdoshi, mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash olib borgan sarkarda, xalq qahramoni, 1219-yilning dekabrda 3 kunlik jangdan keyin Banokatni egallagan Aloq no'yon boshliq 5 ming kishilik mo'g'ul qo'shini Xo'jandni qamal qilishga kirishadi. Temur Malik ilgariroq har ehtimolga qarshi Sirdaryo o'rtasidagi orolda, suv 2 shoxga bo'linib oqadigan joyda, bir mustahkam qal'a qurdirib qo'ygan edi. Mo'g'ul qo'shini son va qurol-aslaha jihatdan ustun bo'lgani bois shaharni mudofaa qilish qiyinlashadi. Natijada, Temur Malik 1000 kishilik otryadi bilan 1220-yilning aprelda orolga ko'chib o'tadi va tezlikda qal'ani jangga tayyorlashga kirishadi. Shahar va qal'a atrofini dushman halqa qilib o'rab oladi. Manjaniqdan otilgan olovli toshlar orolga yetmagandan so'ng mo'g'ullar xo'jandlik yoshlar va ilgari olingan asirlardan hashar tarzida foydalanishga qaror qiladilar. Taxminan 50 ming hasharchi tevarak atrofdan tosh, shox-shabba va xashak keltirib daryoga tashlaydi, mo'g'ullarning 20 ming kishilik qo'shini esa jangga kirishadi. Temur Malik usti namat hamda sirkali loy bilan suvalgan, o'q otish uchun darichalari bor kemalar yasatadi. Kunda tongda har ikki tomonga 6 tadan kemada suzib kelib, yovga qirg'in keltiradi. Oxir-oqibat, vaziyat taranglashgach, Temur Malik orolni tashlab ketishga majbur bo'ladi. U qolgan askarlari va yuklari orilgan 70 qayiqda Sirdaryoning quyi oqimi bo'ylab suzib ketadi. Barchinlig'kent (Qizil o'rdadan taxminan 50 km jan.da bo'lgan) yaqinida mo'g'ullar daryoni to'sib qo'yadilar. Temur Malik qirg'oqqa tushib, dushman bilan jang qiladi. Ko'p talafot berib, yolg'iz o'zi Qizilqum cho'li orqali 1220-yilning yozida Xorazmga yetib keladi. Askar to'plab Jo'jixon qo'shiniga kuchli zarba beradi. Kasba (Yangikent) shahrini mo'g'ullardan ozod qiladi, ammo saltanatda yuzaga kelgan mushkul siyosiy vaziyat tufayli Xorazmni tark etadi. Temur Malik 1221—32 yillar davomida Sulton Jaloliddin bilan birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurash olib boradi. Jaloliddin halokatidan keyin o'z yurtiga qaytadi. Ma'lum vaqtdan so'ng Temur Malik mo'g'ullar tomonidan qo'lga olinadi va qatl qilinadi.

Xulosa

Shuni aytish mumkinki tarixda qurilgan har turkiy davlatlarni tashqi dushmandan ko'ra ichki dushmanlar yoki boshqa bir turkiy davlat yoq qilganini korishimiz mumkin. Saljuqiylar usmonlilar, temuriylar xorazm shoh shahzodalari orasida gi taxt uchun kurash turkiy davlatlarni zaiflashishiga olib kelgan va ular oson yengilishgan.markaziy osiyoda esa uch xonlik davzidagi yani Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi doimiy urushlar ularning harbiy salohiyatiga va iqtisodiyotdiyotiga katta ziyon ketkazgan va ularni Rossiya imperiyasi osonlik bilan bosib olgan. Xorazmshohlar davlatida ham shu vaziyat hattoki m'g'ullar bilan katta urush bo'lib turgan b o'lsada taxt uchun kurash to'xtamagan va bu Chingizhon g'alabasini taminlagan. Temuriylar imperiyasida huddi shu narsa takrorlandi, o'z vaqtida dunyoning 4 dan 3 qismiga hukmronlik qilgan ulkan davlat ichki urushlar natijasida parchalandi, bu esa shayboniyhonning temuriy shaxzodalalrini osonlik bilan yengishiga olib keldi.

References:

Используемая Литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Damgaard, P. B.; et al. (9-May 2018-yil). "137 ancient human genomes from across the Eurasian steppes". Nature. Nature Research. 557 (7705): 369–373. Bibcode:2018Natur.557..369D. doi:10.1038/s41586-018-0094-2. PMID 29743675. S2CID 13670282.

2. Uchiyama, Junzo; Gillam, J. Christopher; Savelyev, Alexander; Ning, Chao (2020). "Populations dynamics in Northern Eurasian forests: a long-term perspective from Northeast Asia". *Evolutionary Human Sciences*. 2. doi:10.1017/ehs.2020.11. hdl:21.11116/0000-0007-7733-A. ISSN 2513-843X. S2CID 219470000.
3. Lee & Kuang (2017) "A Comparative Analysis of Chinese Historical Sources and Y-DNA Studies with Regard to the Early and Medieval Turkic Peoples", *Inner Asia* 19. p. 207-208 of 197-239
4. André Wink. *Al-Hind: The Slavic Kings and the Islamic conquest, 11th–13th centuries*. BRILL, 2002 — 69--bet. ISBN 978-0-391-04174-5.
5. Babayar, Gaybulla (2013). „The Imperial Titles on the Coins of the Western Turkic Qaghanate“. *History of Central Asia in Modern Medieval Studies*. Tashkent: Yangi Nashr. 331-bet.
6. Uchiyama, Junzo; Gillam, J. Christopher; Savelyev, Alexander; Ning, Chao (2020). „Populations dynamics in Northern Eurasian forests: a long-term perspective from Northeast Asia“. *Evolutionary Human Sciences* (inglizcha). 2-jild. doi:10.1017/ehs.2020.11. hdl:21.11116/0000-0007-7733-A. ISSN 2513-843X. S2CID 219470000.
7. Ad.:Rashidad-Din, *Sbornik letopisey, t.1, kniga 2*, [Perevod s pers. yaz. O. I. Smirnovoy], M.—L., 1952; Bartold V. V., *Sochineniya, t.1, M., 1963*; Mirzo Ulug‘bek, *To‘rt ulus tarixi, T., 1994*.